

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

BO'LAJAK BIOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINING O'RNI

p.f.f.d. (PhD) Raxmatova Salima Togaymurodovna

*Termiz davlat pedagogika instituti “Biologiya va uni o'qitish metodikasi” kafedrasida
katta o'qituvchisi e-mail: raxmatova2022@gmail.com*

Egamberdiyev Ahliddin Qudrat o'g'li, Eshboyev Sharofiddin Shavkat o'g'li

*Termiz davlat pedagogika instituti Biologiya ta'lim yo'nalishi 3- bosqich talabalari
e-mail:*

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanidan darslarni o'tish jarayonida, muammoli ta'lim texnologiyasining asosiy ahamiyati haqida bayon etiladi. Talabalarga bilim ko'pincha tugallangan shaklda berilmaydi, balki ular tomonidan muammoli vaziyatda mustaqil kognitiv faoliyat jarayonida o'zlashtiriladi. Muammoli ta'lim nazariyasi talabaning aqliy kuchini rivojlantiruvchi ta'limni tashkil etishning psixologik-pedagogik yo'llari va usullarini tushuntiradi.

Kalit so'zlar: Muammo, psixologiya, pedagogika, optimal, fikrlash, ta'limot, stereotip, texnologiya, kognitiv, eritrotsitlar va h.k.

Аннотация: В данной статье описано основное значение проблемно-образовательной технологии в процессе прохождения уроков биологии в высших учебных заведениях. Знания зачастую не даются учащимся в готовом виде, а приобретаются ими в процессе самостоятельной познавательной деятельности в проблемной ситуации. Теория проблемного образования объясняет психолого-педагогические пути и методы организации обучения, развивающего умственные силы обучающегося.

Ключевые слова: проблема, психология, педагогика, оптимальное, мышление, обучение, стереотип, технология, когнитивное, эритроциты и др.

Abstract: The article presents information that has been studied and analyzed in the process of preparing students for professional activity in higher education institutions, as the opportunities to study the methods of professional development of a person, in particular, the development of a professionally important way of thinking for students, are becoming more and more relevant.

Key words: Problem, psychology, pedagogy, optimal, thinking, teaching, stereotype, technology, cognitive, erythrocytes, etc.

Oliy ta'lim muassasalarida har tomonlama rivojlangan shaxs taxsil oladi. Har tamonlama rivojlangan shaxsning eng muhim ko'rsatkichi yuqori darajadagi aqliy qobiliyatlarning mavjudligidir. Oliy ta'lim muassasalarida biologiya fanidan dars o'tish jarayonida muammoli ta'lim texnologiyasining ahamiyati juda katta. Muammoli ta'lim deb o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning eng muqobil varianti yordamida fikr yuritish qonuniyatlariga tayangan holda o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish jarayonida fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va bilish ehtiyojini qondirish maqsadiga yo'naltirilgan shaxsning umumiy va maxsus rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan jarayonga aytiladi.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Muammoli ta'lim - bu o'qitish, unda o'qituvchi tizimli ravishda muammoli vaziyatlarni yaratib, o'quv muammolarini hal qilishda talabalarning faoliyatini tashkil etadi.

Muammoli ta'lim jarayonida o'qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatni vujudga keltirib, mazkur muammo o'quvchilarning faol mustaqil faoliyati natijasida bilim, ko'nikma va malakaviy ijodiy o'zlashtirish va aqliy faoliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Muammoli o'qitish texnologiyasi o'rganilayotgan mavzudagi asosiy muammoni ajratib olish va muammoni talabalar tomonidan mustaqil hal etilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi ta'lim texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Bunda muammoning turi, muammoning sabablari va ko'rinishlari, muammoni hal etish uchun harakatlar belgilanadi. Muammoli ta'lim bu – talabaga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo'l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir.

Hozirgi davr ta'lim tizimining zarur tarkibi bu muammoli ta'limdir. Pedagogika fanlari doktori, professor L.M.Pancheshnikova ta'kidlaganidek, “Muammoli ta'lim avvalo talabalar uchun yangi hisoblangan muammolarni dalillar bilan hal etish jarayoniga talabalar va o'qituvchi hamkorlikda kirishishi bilan tavsiflanadi”. Muammoli ta'limni sharhlashda olimlar, mutaxassislar va metodistlar o'rtasida yagona fikr shakllanganicha yo'q. Shunisi aniqki, muammoli ta'lim o'qituvchining “hikoya qilish, tushuntirish, bilimni aniqlash” faoliyati, talabaning “e'tibor berish – yodda saqlash - takrorlash” faoliyatini tan olmaydi. Bu chizma muammoli ta'lim talabini qanoatlantirmaydi. Mazkur chizma talabalarning bilish faoliyatini rivojlantira olmaydi.

Muammoli ta'limning mohiyati va uni amalga oshirish yo'llari haqida asosan ikki yo'nalish mavjud. Birinchi yo'nalish tarafdorlari agar o'quv materialining muayyan qismini talabalar o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarib, mustaqil o'rgansalar, masalan oqsil va nuklein kislotalar, eritrotsitlar haqidagi ma'lumotlarni bilish (egallash) uchun izlansalar, buni muammoli ta'lim deb hisoblaydilar. Ular qiyoslash, oqsil va nuklein kislotalar komponentlari orasidagi o'zaro aloqadorlik sabablarini, eritrotsitlar o'lchami, yopishqoqligi, sonini aniqlash maqsadida evristik (savol-javob) suhbat uchun an'anaviy savollarni muammoli deb hisoblaydilar. Masalan, “RNK va DNK farqi nima?” yoki “Nima uchun DNK irsiy material deb ataladi?” kabilar. Bunday savollar ilgari ham “muammoli” deyilmasada, talabalarga topshiriq sifatida berilgan. Hozir bu topshiriqlarni mustaqil va ijodiy bajarilishiga e'tibor berila boshlandi.

Muammoli ta'lim masalalari bo'yicha qizg'in munozaralar hali ham davom etmoqda: Ta'limni texnologiyalashtirish bilan bog'liq holda muammoli ta'lim muammoli texnologiya sifatida belgilanadi. Biroq, bir qator olimlar (N.M.Verzilin, L.V.Rebrova, G.F.Fedorets, V.N.Maksimova) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, biologiya darslarida bu turdagi ta'lim har doim ham mumkin emas.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

Masalan, organizmlarning tuzilishi, hujayra tuzilishi, nuklein kislotalarning xossalari kabi mavzular ko'rib chiqilayotgan ob'ektlar haqida aniq bilimlarni talab qiladi.

Bundan tashqari, muammoli ta'limni tashkil etish ko'p vaqt talab etadi, bu esa uning keng qo'llanilishini cheklaydi. Maqolada oliy talim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va talabalarni fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada faollashtirish maqsadida, biologiya ta'lim yo'nalishi talabalariga fanlardan dars berish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan muammoli ta'lim texnologiyasidan dars o'tish jarayonida qo'llash muhokama qilindi. Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari muammoli ta'limni biokimyovo va molekulyar biologiya fani metodlari va fan tarixini maktab biologiya kurslarida aks etishi deb tushunadilar. Fan tarixi deganda yirik ilmiy kashfiyotlar xronologiyasi, olimlar, metodist – biokimyogarlarning nomlari muhimi – biokimyovo va molekulyar biologiya fanida vujudga kelgan muammolar va ilgari surilgan gipotezalar, ularni tadqiq etish va nazariyaga “aylantirish” yo'llarini bilish nazarda tutiladi.

Talabalarni bilimlarni mustaqil o'rganishga, egallashga, izlanishga tayyorlash uchun katta hajmda ko'p bilim berishni o'zi kifoya qilmaydi, ko'p bilim, material berish bilan ularning mustaqil izlanishlarini rivojlantirib bo'lmaydi. Talabalar mustaqilligini rivojlantirish uchun ular fan mazmunini egallash bilan birga, uni tadqiq etish va rivojlantirish usullarini ham tushunib yetishlari – bilib olishlari lozim. Agar biologik ob'ekt va hodisalar haqidagi ilmiy bilimlar va ularning vujudga kelish usullarini ko'rsatish “yangi bilim qanday vujudga kelganligi” haqida muntazam savollar berib borish bilan qo'shib o'rganilsa, bunday ta'limni muammoli ta'lim deb hisoblash mumkin.

“BIOLOGIYANING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, 2023-yil 25-noyabr.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tolipova J.O. Biologiyani o'itishda innovatsion texnologiyalar. Pedagogika oily ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun darslik. Toshkent-2014 y.
2. Niyozov Q. Biologik ta'lim jarayonida o'quvchilar kompetentligini rivojlantirish asoslari Namangan VXTXQTMOI, 2017
3. Quronov M. Yoshlar tarbiyasi - strategik masala. // «Ma`rifat» gazetasi, 2017 yil 1 mart, 17- son.
4. Ro'ziyeva G.T. “ Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasining nazariy asoslari” 2022-yil 190-196 betlar.11-son.
5. Hayitov A. E., Aslanova X. G. USE OF STUDENTS'LOGICAL THINKING ELEMENTS IN TEACHING ZOOLOGY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 10. – C. 166-169